

Jaloliddin Manguberdi Qo‘Shinlari Tuzilishi, Qo‘Shinlar Ta‘minoti Va Qurol Yarog‘Lari

Ortikov Akmal Kobulovich¹

Sulton Jaloliddinning qo‘shini soni va tarkibi haqida ma‘lum bir raqamni yoki aynan bir urug‘ va millatni aytish mushkul. Chunki manbalarda keltirilgan raqamlar qay darajada ishonchli ekanli nomalum. Ozarbayjonlik tadqiqotchi olim Ziyo Buniyodov manbalarda keltirilgan raqamlarni o‘z tadqiqotlarida qanday ko‘rsatilgan bo‘lsa shundayligicha keltiradi. Jumladan, Jaloliddin Hindistondaligida 90 ming suvoriy, 1225-yilda Kavkaz davlatlariga kirib borganida 200 ming otliq suvoriy, Isfaxon yaqinida 1227-yilda Toynol no‘yon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan to‘qnashganda 100 ming piyoda va otliq qo‘shinlari bo‘lganligini ta‘kidlaydi². Bu raqamlarni har birini alohida tanqidiy tahlil qilsakda, keyin xulosa bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi. 1220-yilda Jaloliddin Urganchda fitna haqida xabar topgach, uch yuz otliq bilan shahardan chiqib ketadi. 1221-yilda u G‘aznaga kelganida uning qo‘shinini soni bir muncha ortadi, ya‘ni, Nasaviy ma‘lumotlariga ko‘ra G‘aznada Jaloliddinga qo‘shilganlardan Sayfiddin Ag‘roq xalaj, Balx hukmdori A‘zam Malik, qarluqlar yo‘boshchisi al-Hasan Qarluqlar bo‘lib, ularning har birida o‘ttiz ming kishidan jangchi bo‘lganligini e‘tirof etsa³, Juvayniy esa Jaloliddin G‘aznaga borayotganda ellik ming kishilik qo‘shinga ega Amin Malik tomonidan kutib olinganini va Sayfiddin Ag‘roq qirq ming kishilik qo‘shin bilan kelib qo‘shilganligini, ayni paytda G‘ur amirlari ham xuddi shu tarzda kelib qo‘shilganligini aytadi⁴. Ammo Gurlarni qancha qo‘shinga ega bo‘lganligi aytilmaydi. Abul Faraj Jaloliddin G‘aznada vaqtida uning qo‘shinidagi barcha askarlar sonini to‘qson ming qilib ko‘ratsa, Juzjoniy esa bir yuz o‘ttiz ming kishilik lashkari bo‘lganligini ta‘kidlaydi⁵. O‘rta asrlar manbalarida ham yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar deyarli takrorlanadi. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek G‘aznada Jaloliddin qo‘shiniga Hirot maligi Amin Malik o‘z qavmi g‘uriylar va lashkari bilan kelib qo‘shilganini³, Qabaqliyon qavmidan esa qirq ming kishi Xorazm tomondan kelib qo‘shilganini ma‘lum qiladi³. Mirxond ma‘lumotlarni bayon qilishda Juvayniyning bergan ma‘lumotlaridan ko‘proq foydalanganini ko‘ramiz. Masalan: Mirxond Hirot hokimi Yamin Malik boshchiligidagi kurdlar (turkiylar)dan bir jamoa G‘aznada Jaloliddinga kelib qo‘shilgani haqida aytadi². Faqat birlamchi manbalar orasida Juvayniy ma‘lumotlarida Amin Malikni Yamin Malik deb ta‘kidlagan³. Sayfiddin Ag‘roq haqida muallif to‘xtalar ekan, uni turkman, qang‘li va xalajlardan iborat qirq ming kishilik qo‘shin bilan kelib Jaloliddinga qo‘shildi deb aniq qo‘shin sonini keltiradi.⁵ Mo‘g‘ullar bosqinidan keyin

¹ dotsent, polkovnik, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti boshlig‘i

² Зиё Буниёдов Ануштеги Хоразмшоҳлар давлати/ Таржима ва сўз боши муаллифи А.Аҳмад ва М.Маҳмуд. Т.: Адабиёт ва санъат, 1998-Б. 120

³ Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Таржима ва сўз боши муаллифи Матёкубов Камол. Т.: ФАН, 2018–Б. 127

⁴ Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо. / Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Ўзгурк. Т.: Мумтоз сўз, 2015. –Б. 370

⁵ Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Таржима ва сўз боши муаллифи Матёкубов Камол. Т.: ФАН, 2018–Б. 381

³ Мирзо Улуғбек. Ўша асар.- Б. 177

³ Мирзо Улуғбек Тўрт улус тарихи/ Форс тилидан таржима Б. Аҳмедов, Н. Норкулов ва М. Ҳасаний. Кириш сўзи, изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. -Т.:Чўлпон, 1994-Б. 177

² Мирхондининг “Равзат ус-Сафо асарида” Жалолиддин Мангуберди зикри / Сўз боши муаллифи М. Ҳасаний. - Т.:Фан, 1999-Б. 12

³ Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо. / Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Ўзгурк. Т.: Мумтоз сўз, 2015. –Б. 411

⁵ Мирхонд Ўша асар. -Б. 12



Xorazmshohlarning tarqalib ketgan qo'shinidagi umumiy ahvolni va o'rta srlarda sharq tarixchilarini qo'shin sonini bo'rtirib ko'rsatishini (bundan ikki xil maqsad ko'zlangan, birinchidan, sulton Jaloliddin shaxsi va uning qo'shini ulug'vorligini ko'rsatish bo'lsa, ikkinchidan esa Juvayniyga o'xshash tarixchilarni mo'g'ullar xizmatida bo'lganini va Afg'onistonda mo'g'ul qo'shinlarini Jaloliddindan ketma-ket mag'lubiyatini haspo'shtlash bo'lgan) hisobga olsak, tadqiqotchi olim Q.Masharipov ta'kidlaganidek sulton Jaloliddin qo'shini soni Afg'oniston hududlaridagi zafarli faoliyati davomida uning qo'shini soni 60 ming atrofida bo'lgan⁶. Ushbu tahlillar orqali shunday xulosa berish mumkinki, Jaloliddinning Hindistondagi faoliyati davomida 90 ming kishilik lashkarni yig'ishi amri mahol bo'lgan. Chunki, birinchidan, Jaloliddinning harbiy qudrati Hindistondagiga qaraganda mo'g'ullar ustidan bir necha marotaba g'olib bo'lgan Afg'onistonda yuqori bo'lgan, sababi Afg'oniston Jaloliddinga otameros mulk va bu hududda qachonlardir otasi qo'shini tarkibida bo'lgan, keyinchalik mo'g'ullar hujumi natijasida tarqalib ketgan, qolaversa Jaloliddinni qo'llaydigan turli xil qavmlarni yig'ib olish u darajada katta muammo bo'lmagan. Ikkinchidan, manbalardan ma'lum bo'lishicha sulton Jaloliddin Hindistondaligida qo'shin soni 10 mingga yetganligi, yoki Hindiston rojalari Kubacha va Shamsitiddin eltutmishning birlashgan yigirma ming kishilik qo'shiniga qarshi tavakkal qilib O'zbek Toyi boshchiligidagi yetti ming kishilik qo'shinini qo'yganligi qayd etilad⁷. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, Jaloliddin Hindistondan chiqib ketayotganida to'rt ming askari bo'lgan. Demak, Jaloliddinning Hindistonda 90 ming kishilik qo'shini bo'lgan degan fikr haqiqatdan bir muncha yiroq. Uning qo'shinini soni aynan Hindistonda ko'pi bilan 10 ming atrofida bo'lganki, mana shu qo'shinni o'zi tarqoq hind rojalariga qarshi kurashish uchun yetarli bo'lgan.

Sulton Jaloliddin qo'shini sonini Kavkazdagi harakatlari davomida 200 mingga yetgan degan fikr ham biroz bo'rtirilgan. Sababi Jaloliddin Hindistondan chiqqan vaqtda ixtiyorida 4000 kishilik qo'shin bo'lgan. To'g'ri Jaloliddinning Iroqdagagi muvafaqiyatli harakatlarni amalga oshirgandan keyin ham xalifa an-Nosirning Jaloliddinga qarshi yuborgan 20 ming kishilik qo'shini son jihatdan ustun bo'lganligi manbalarda keltiriladi⁸. Gruziyaga qarshi harbiy harakatlarni boshlaganda Garni yaqinida sulton lashkarlarini soni raqib tomonga nisbatan ozchilik bo'lgan. Ibn al-Asir ma'lumotlariga qaraganda gruzinlar qo'shini soni 70000 kishi bo'lgan va ulardan 20000 dan ko'prog'i halok bo'lgan⁹. Nasaviy malumotlarida bu ko'rsatgich 60000 qilib ko'rsatiladi, ammo Jaloliddinning qo'shini soni aniq ko'rsatilgan emas. Rashididdin ma'lumotlarga ko'ra Jaloliddin qo'shini soni 30000 kishidan iborat bo'lgan. Biz uchun eng ishonchli ma'lumotlar Nasaviy keltirgan ma'lumotlardir. Nasaviy qayd etishicha ushbu jangdan oldin sulton qo'shinining ma'lum bir qismi yumushlar bilan Iroq va boshqa hududlarga jo'natilgan. Shu o'rinda tadqiqotchi olim Q.Masharipov bu jangda sulton Jaloliddin qo'shinlari soni 20-25 ming atrofida bo'lgan degan ma'lumotlari haqiqatga yaqin¹⁰.

Xulosa o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinli-ki, Jaloliddin qo'shini haqidagi qarashlarning turlichaligi avvalambor birlamchi manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning turlicha ekanligida. Ikkinchidan, uning faoliyatining dastlabki davrlarida markazlashgan davlatchilikning boshqaruv tizimini mavjud emasligida edi.

Sulton Jaloliddin harbiy faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, u qo'shinni son jihatdan emas, balki sifat jihatdan yaxshilashga uringan. Buning sababini Jaloliddin faoliyat olib borgan hududlar u uchun begona bo'lganligi, yoki ulkan lashkar yig'ish va bu lashkarni ta'minot masalasini hal qilishda muommolarga duch kelganligi hamda siyosiy vaziyatni og'irligi bilan izohlasak bo'ladi. Baribir qo'shin soni qancha bo'lmasin uning ta'minoti lashkarni sifat darajasiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jaloliddin qo'shinni qurol yarog' va oziq ovqat bilan ta'minlash masalasi turli xilda amalga oshirilgan. Masalan, dushman qo'shinlari ustidan g'alaba qozonilganda o'lja sifatida katta boylik, qurol yarog'lar

⁶ Masharipov Kudrat. Жалоліддин Мангуберди буюк ватанпарвар саркарда. Т.: Наврӯз 2019 –Б. 160

⁷ Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо. Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Ўзтурк. Т.: Мумтоз сўз, 2015. –Б. 377. Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Султон Жалоліддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Таржима ва сўз боши муаллифи Матёкубов Камол. Т.: ФАН, 2018–Б. 384

⁸ Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Султон Жалоліддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Таржима ва сўз боши муаллифи Матёкубов Камол. Т.: ФАН, 2018–Б. 391.// Алоуддин Атомалик Жувайний. Шўа асар. 382.

⁹ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. (Полный свод истории). С. 376.

¹⁰ Masharipov Kudrat. Жалоліддин Мангуберди буюк ватанпарвар саркарда. Т.: Наврӯз 2019 –Б. 197.



va oziq ovqat zahiralari qo'lg'a kiritilgan. Bunday holatni biz sulton Jaloliddin 1220 yil Niso yaqinida 300 kishilik otlig qo'shini bilan 700 kishilik mo'g'ul qo'shinlari ustidan qozonilgan g'alabadan keyin ularni o'ljalarini qo'lg'a kiritgani orqali, 1221 yil Parvon dashtidagi g'alabadan keyin, qolaversa Jaloliddinning Hindistondagi faoliyati yoki Iroq va Kavkaz davlatlaridagi faoliyatlari davomida ham ko'rishimiz mumkin¹¹. Qo'shin ta'minoti nol solig'i orqali ham amalga oshirilgan¹². Manbalarda keltirilishicha sulton Jaloliddinga Niso yaqinidagi Choramend qishlog'i, Zavzonda al-Qohira qal'asi, Hindistondagi Saduson shahri, Fors davlati hukmdori Sa'd ibn Zangi xuddi shunday soliqni to'lagan¹³.

Sulton Jaloliddinning harbiy faoliyati davrini shartli ravishda ikki davrga, ya'ni 1220-1224 yillardagi Afg'oniston va Hindistondagi faoliyati birinchi davr, 1224-1231 yillardagi eron va Kavkaz davlatlaridagi faoliyati esa ikkinchi davrga kiritishimiz mumkin. Birinchi va ikkinchi davrlarda sultonning jang qilish taktikasi, qo'shin soni va tarkibi, shu jumladan qo'shin ta'minotidagi ehtiyojlarni qondirishda ham farqlar seziladi. Masalan, birinchi davrda Jaloliddinning qo'shin ta'minoti masalasi aniq bir qolipga solinmagan holda, yuqorida aytganimizdek qo'shin ehtiyojlari jangda asir tushgan o'lja va nol solig'i orqali qondirilgan. Chunki bu davrda sulton Jaloliddindan norozi kayfiyatdagi kuchlarning ko'p bo'lganligi uning hali o'zining barcha sohalar tartibga solingan, muqim davlatining mustahkam poydevorini qurishga ulgirmaganligi bilan izohlasak bo'ladi.

1224-1231 yillardagi eron va Kavkaz davlatlaridagi faoliyati davomida qisqa muddatga bo'lsada davlat boshqaruvga oid bo'lgan tizim shakllantirilgan. Bu o'z o'zidan qo'shin ta'minoti uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rishga imkoniyat yaratdi. To'g'ri, qo'shinni asir tushgan o'ljalar hisobidan ta'minlash imkoniyatidan to'la voz kechilmagan, ammo, mavjud davlat xazinasidan yetarlicha mablag' va ot ulov bilan ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi. Jumladan, 1227 yilda gurjilarga qarshi navbatdagi harbiy harakatlarni amalga oshirish chog'ida xazinadan qo'shin uchun yetarlicha mablag' ajratiladi¹⁴. Yana shuni ham alohida ta'kidlashimiz mumkinki, avvaldan xorazmshohlar saltanatidagi mavjud tartibga ko'ra, qo'shinda xizmat qilgan harbiylar ma'lum bir qiymatdagi iqtoga ega bo'lishgan. Iqto egalari chaqirilgan zahoti o'z amirlari qo'l ostida birlashganlar. Bu iqtodordlardan tashkil topgan ko'p sonli suvoriy qo'shin viloyat askarlarini tashkil etardi¹⁵. Bundan ko'rinadiki, iqtodorlar qo'l ostidagi qo'shin ta'minoti ana shu iqto egasining zimmasida bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nasaviy Shahobiddin Muhammad. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti / Tarjima va so'z boshi muallifi Matyoqubov Kamol. T.: FAN, 2018.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. / Tarjima va so'z boshi muallifi Nazarbek Rahim, Mursal O'zturk. T.: Mumtoz so'z, 2015.
3. Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarix. (Полный свод истории).
4. Mirzo Ulug'bek To'rt ulus tarixi/ Fors tilidan tarjima B. Ahmedov, N. Norqulov va M. Hasaniy. Kirish so'zi, izohlar muallifi B. Ahmedov. -T.:Cho'lpon, 1994
5. Mirxondning "Ravzat us-Safo asarida" Jaloliddin Manguberdi zikri / So'z boshi muallifi M. Hasaniy. -T.:Fan, 1999
6. Masharipov Quadrat. Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar sarkarda. T.: Navro'z 2019.

¹¹ Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Таржима ва сўз боши муаллифи Матёқубов Камол. Т.: ФАН, 2018–Б. 102,128,134,137, 138. Яна қаранг: Мирхонднинг “Равзат ус-Сафо асариди” Жалолиддин Мангуберди зикри / Сўз боши муаллифи М. Ҳасаний. -Т.:Фан, 1999-Б. 19

¹² Изоҳ: Нол солиғи ҳукмдор бирор ҳудуддан ўтаётганда ўша жой халқи ҳукмдор лашқари ва отлари учун егулик эҳтиёжлари билан таъминлаш

¹³ Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Ўша асар. Б. 103,107,139. Яна қаранг: Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо. / Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Ўзтурк. Т.: Мумтоз сўз, 2015. –Б. 380

¹⁴ Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо. / Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Ўзтурк. Т.: Мумтоз сўз, 2015. –Б. 395

¹⁵ Машарипов Қудрат. Жалолиддин Мангуберди буюк ватанпарвар саркарда. Т.: Наврўз 2019 –Б. 258-259



7. Ziyo Buniyodov Anushtegi Xorazmshohlar davlati/ Tarjima va so‘z boshi muallifi A.Ahmad va M.Mahmud. T.: Adabiyot va san’at, 1998
8. Otaboyev A.K. Sulton Jaloliddin – ozodlik va mustaqillik yalovbardori. International Journal of Economy and Innovation | Volume 48 (2024-06-22) | Gospodarka i Innowacje (2545-0573). Impact Factor: 9.87. SJIF Impact Factor: 7,916.
9. Otabaev A.K. The role of social partnership in community life. Web of Technology: Multidimensional Research Journal (IFSIJ JIF 7.425, ISSN (E) 2938-3757). Volume 1, Issue 9, Decembr, 2023.
10. Otabaev A.K. Political and legal foundations of civil society development. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends (ISSN (E): 2810-6393, IFSIJ JIF 7.665).Volume 01, Issue 09, December 2023.
11. Otabayev A.K. “Relationships Between Military Service and Religion” // In Volume 54 (2024) of Miasto Przyszłości, Impact Factor: 9.9. SJIF 2023: 6.567.

